



TURKISTONDAGI IJTIMOIIY-MADANIY HOLAT: FITRAT ASARLARI XUSUSIDA

Qarshi xalqaro universiteti
Filologiya va tillarni o'qitish kafedrası
assistent-o'qituvchisi
Jovliyev Azamat Shamamatovich
azamatjovliyev@gmail.com.
[Tel:90-733-40-07](tel:90-733-40-07)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning “Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilg'an munozarasi” va “Hind sayyohi bayonoti” asarlari asosida Buxoro amirligi aholisining madaniy-siyosiy va ijtimoiy ahvoli bayon etilgan.*

Abstract. *This article describes the cultural, political and social situation of the population of Bukhara Emirate based on the works of Abdurauf Fitrat “Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilg'an munozarasi” and “Hind sayyohi bayonoti”.*

Kalit so'zlar: *jadid maktablari, madaniy hayot, mudarris, firangi, hind sayyohi.*

Keywords: *jadid schools, cultural life, mudarris, firangi, indian tourist.*

Bizga ma'lumki, Abdurauf Fitratning “Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilg'an munozarasi” va “Hind sayyohi bayonoti” asarlarida boshqa bir yurt vakili tilidan Buxoro, umuman, turkistonliklar aholisining yashash sharoiti, ijtimoiy ahvoli va madaniy hayoti aniq bo'yoqlarsiz yoritib berilgan. XIX asr oxirida Buxoro amirligi aholisi 2 millionga yaqin bo'lgan.



Uning tarkibiga Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo vohasi va hozirgi Tojikiston hududining ayrim viloyatlari, hozirgi Turkmanistonning Murg'obgacha bo'lgan bir qismi kirar edi. Shahar va qishloqdagi aholining ko'pchilik qismida o'zbeklar, tog' va tog'oldi joylarida tojiklar yashar, Marv tomonlarda esa turkmanlar, shimoliy va sharqiy yerlarda qozoq va qirg'izlar yashar edi. Rusiya podsholigi bilan 1868-yilgi shartnoma Buxoro amirligi taqdirini tubdan o'zgartirib yubordi. Avvalgi amir hokimiyati hududi suverenitet va mustaqillikdan mahrum bo'lib, Podsho Rossiyasiga qaram va tobe bir davlatga aylanib qoldi. Garchi siyosiy mustaqilligidan mahrum bo'lsa-da, Buxoro amiri o'z fuqarolari ustidan cheklanmagan hokimiyatini qo'lida saqlab qolgan edi.

Fitrat Buxoro jamiyatining ijtimoiy-madaniy ahvoli xususida: *“Buxoroning najib millati bo'lg'an vatandoshlarim, birmuncha vaqtdan beri jadid va qadim ixtilof chiqqani ba'zi millat xoinlarining xato va fasodlaridan boshqa narsa emasdir. Muqaddas vatanimizni parchalab, uning ahli jamoasini jadid va qadim unvonlari ostida ikki firqaga ajratib, ularning birini ikkinchisiga dushman qilib qo'ydilar. Xor va xarobligimizning asosiy sababi musulmonlarning emas, balki o'sha ma'nisiz ixtilofdan ma'lum bo'ldi.”*, (Abdurauf Fitrat, 2000, 45) deya ta'kidlab o'tar ekan, o'sha davrdagi aholi madaniy-siyosiy qatlami orasidagi jadid-qadim firqalarining jamiyat rivoji yo'lidagi mas'luliyatni angalshi lozimligini aytadi. Ikki firqaga bo'linmasdan birtan-u bir jon bo'lib, aholining ijtimoiy va siyosiy ongini uyg'otishga birdek mas'ul bo'lishlarini aytadi. *“Binobarin, har kim o'zini dini mubini islomning xizmatida bilsa, uyimizni buzg'uchi bu ixtilofni biz – buxorolilar orasida ko'tarishga harakat qilsin.”* (Abdurauf Fitrat, 2000, 46) Muallif, avvalo, o'zi shu ishga birinchilardan bo'lib tashabbus ko'rsatgani holda, jamiyat hayotidan arz qiluvchi bir risola yozamoqchi bo'lganligini aytadi: *“Banda ham bu maslaki muqaddasning soliklaridan biri bo'lgan holda, shu kunlarda bir hikoyat yozdimki, bu buxoroli bir mudarrisning Xajg'a bora turib, Hindistonda bir farangi ila usuli jadida ham usuli qadim xususida qilg'an munozarasi bo'lib, mazkur hikoyat ushbu*



masalani tugal hal qilg'andir.” (Abdurauf Fitrat, 2000, 48) Fitrat risolani yozar ekan, maslaning ahamiyatini, jiddiyatini shu kichik bir asar orqali shoyadki bilsa, o'sha jadid-qadim jamoalari ko'zlarini ochsa degan maqsadni ko'zlaydi. *“Shoyad bir risola suratida va buxorolilarning suhbatlari tarzida tartib qilib, nashr qilmoqni istaganim shu vasila ila muhtaram vatandoshlarim mas'alaning haqiqatidan ogoh topib, o'rtadagi ixtiloflarni tark qilib, hammalari ittifoq bilan hidoyat yo'liga qadam qo'ysalar.*” (Abdurauf Fitrat, 2000, 50)

Tarix kitoblarining o'sha davrdagi *“zarvaraqlari”*ga qaraydigan bo'lsak, Buxoro aholisining, dehqonlarining aksariyat ko'pchiligi kambag'allikda kun kechirardi, chunki yer va ish hayvonlari amir va uning amaldorlari qo'lida edi. Aholining ilm toifalari ham madrasalarda 200-300 yil oldingi ta'lim dasturlariga amal qilgan holda, darslarni o'rganib 20-30 yillik eng gullaydigan umrini madrasada o'tkazardi. Shu davr yuqori qatlam aholisining nazarida hamma odamning ilmi bo'lishi mumkin emas. Agar hammasi olim bo'lib ketsa, boshqa ishlar egasiz qoladi degan iptidoiy tushunchalar bo'lgan. Buxoro shahrining o'zida 70 ming atrofida aholisi bo'lganini hisobga oladigan bo'lsak, uning bor yo'g'i 10 dan biri ilmni qisman egallagan. Ular ham 20-30 yil umrini eskicha ta'lim dasturi bilan savod chiqargandan so'ng kasb egallagan. Bu holatni asardagi mudarris bilan farangining suhbatidan bilib olish mumkin.

Asarda Buxoro yurtining har tomondan ahvoli shikoyat yo'sinida, tanqid yo'sinida ochib berilgan. Buxoroda shunchalik ko'p madrasalar bo'lsa-da, u yerdagi ta'lim tizimining, yuqorida aytilganidek, eski shaklda qolayotgani kishini hayratga solidi. Davlat arboblari chetda tursin, hatto ilm ahllari, ziyoli ahllarini bu holat parvoyiga ham kelmaydi. Ilm ahllaridan bo'lgan mudarrisning quyidagi gap, ayniqsa, juda hayratda qolarli. *“Farangi: ... Endi aytingchi, bu ikki milyo'n odamning hammasi ham ilmlimi yo yo'q? Mudarris: Yo'q, hammasining ilmi bo'lishi mumkin emas. Agar hammasi olim bo'lib ketsa, boshqa ishlar egasiz qoladi. Mudarris: Ha, mening aqidam shudir. Yurtdoshlarim har shu aqidaga sherikdirlar.*



Agar hamma kishilar ilm tahsili bilan band bo'lsalar, boshqa kasb-u korlar qolib ketib, dunyo xarob bo'lar". (Abdurauf Fitrat, 2000, 53) Bunaqangi jaholatdan, madaniyatning ma'nosizlashganini ko'rishimiz mumkin. Aslida, ilmga e'tibor berilsa, xalqning ilmiy va madaniy salohiyati oshadi va jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Farangining gaplaridan ham bilish mumkinki, Yevropa chuqur g'aflat uyqusidan ilm tufayligina uyg'ondi, qishloq xo'jaligi yangicha usullar hisobiga o'zining oldingi an'analarini saqlagan holda rivoj topdi. Buxoro yerlarida esa eskicha usuldagi holat davom etgan. Ta'lim va ma'daniyatning islohoti haqida Fitratning "Hind sayyohi bayonoti" asarida ham quyidagi fikrlar keltirigan. Buxoroning ta'lim va madaniy islohi Mirzo Sheroziy degan ulamo tomonidan ikki yuz yil oldin amalga oshirilgan va bunda madrasalarda darslar 20-30 yil davomida har bir asarning bosh sahifalarinigina yodlash, ma'lum duolarni takror etish bilan davom etgan, arab tilini o'rganishdagi holat ham xuddi shunday bo'lgan. Hindistonlik sayyoh tilidan: "Mana ikki yuz yildirki, o'zining ilmiy qimmatini yo'qotmish. Mirza Sheroziyning kelishi bilan Buxoro ulamolari "ziyodati lafzi salosin" ma'nisini tahqiq etishdik naf'siz ishg'a berilib, adashmishlar. Turkistonlilarning ko'bachiligi ayni shunda tahsil ko'rganlari bois buxorolilarga ergashib, ular ham jaholat va g'aflat botqog'iga botmishlar. Alal-oqibat madaniyat osmonining porloq yulduzi, insoniyat kitobining nurli shifasi bo'lmish Turkistonni do'stu dushman oldida eshitish va gapurish bobida uyatliq bir holg'a etkazmishlar, halokatg'a muhtalo etmishlar." (Abdurauf Fitrat, 2000, 98). Muallif shuningdek, G'arb madaniyati va ilmi haqida to'xtalarkan, G'arb bir paytlar chuqur madaniyatsizlik va jaholat uyqusida ekanligini ta'kidlaydi. Ular salib yurishlari vaqtida va sharqlik savdogarlarning ta'sirida Islom sivilizatsiyasini, Sharqning buyuk madaniyatini o'zlarida joriy qila boshladi. Va bu ularni nafaqat jismoniy tomondan, balki madaniy-ilmiy tomondan rivojlantira bordi. Buxoro ahlining ba'zi ulomolari o'z manfaatlari yo'lida hatto hadislarni ham o'zlariga moslashitirib olish holatlari urf tusiga kirgan va buni Fitratning hindistonlik tilidan aytgan gaplaridan ham bilsa



bo'ladi. *"Buxoro ruxoniylaridan eng mo'tabar maqomg'a ega bo'lmish bir jamoalari bugungi kunda haqiqiy ilmdan Mutlaq xabarsiz qolmishlar... Yigirma yil tahsil olib, yana yigirma yil dars berib, andin so'ngra muftiylik mansabiga erishganlar, Hadislar to'qib chiqarmishlar..."* (Abdurauf Fitrat, 2000, 99) O'sha davrning taomiliga ko'ra madrasalarda muftiyini tayinlash jarayoni ham mutlaqo adolatdan yiroq, sinab ko'rish tekshirib ko'rishdan uzoq shaklda tashkil qilingani ham yetishajak mullabachchalarning taqdirini belgilagan. Natijada shu mullabachcha ham o'zining sarflagan xarajatlarini muftiy bo'lgan kezda ustozlaridan orttirib shogirdlaridan undirib olgan. *"Farangi: Sizning va yurtdoshlaringizning bu aqidasi botildir. Mudarris: Nega? Farangi: Shuning uchundirki, agar ilmga rag'bat dunyo xaroblig'i va ba'zi ishlarning egasiz qolishig'a sabab bo'lsa, "Ilmni Chindan bo'lsa ham izlang". Binobarin, Buxoro ishlari shu qadar jaholatg'a botganki, aholi ilmi bo'lg'anidan keyingina tartibga tushadi... Taassufki, Siz musulmonlar toifasi Qur'on karim va Hadisning ma'nolaridan juda yiroqlashib ketgansiz... Boshqacha fikr qilmaysizki bu muborak majmua (Qur'oni karim)ni Hazrati Hakimi Azal (Alloh) o'zining buyuk farishtasi orqali olamning oqillarig'a bekorga jo'natmagan edi. Albatta, buning asrori bordirki U (Alloh)ning amrlarini amalda qo'llaylik, uning ta'qiqlaridan saqlanaylik. Biz frangilar dinigizning dushmani esakda, diniy xusumatlarimiz taqozo qilg'anidek, Qur'on va hadislarigizni kuydirish o'rniga, ulardan o'z manfaatimiz nuqtayi nazaridan foydalanmoqqa, chanqog'imizni qondirmoqqa o'rgandik. Uning amrlarini amalga oshirdik va favqulodda taraqqiyotga erishdik. Va sizlar g'aflatda qolib, Qur'on karimning saodatli hukmlaridan hamda hikmatli xabarlaridan bahra ololmay, tanazzul tubiga tushdingiz."* (Abdurauf Fitrat, 2000, 49)

Xulosa qilib aytganda, Fitrat o'sha yillarda yozgan asarlarida ham tarixiy o'tmishga murojaat etganiga qaramay, mustamlakachilarning Turkistonda olib borgan g'ayrimilliy siyosatiga faol munosabat bildirib, zulm va zo'ravonlikka



asoslangan “*yangi tuzum*”ni keskin qoralagan. Shuningdek, bunga nafaqat tashqi mustabid tuzum, balki ichki siyosiy-itimoiy ahvol, madaniyat va qadriyatlarning buzulishi ham sabab bo‘lishini ko‘rsatib beradi. Jamiyatning jamiyat bo‘lishida, davlatning yuksak bir rivojlangan davlat bo‘lishida amaldorlar qatori yurtning ziyolilari, ulamolari, olimlari ham birdek mas’ulligini yuqoridagi asardan ham bilib olish mumkin. Fitrat ijodining shu davrdagi yetakchi motivi — mustamlakachilarga qarshi istiqlol uchun kurash g‘oyasi “*Chin sevish*” va “*Hind ixtilolchilari*” asarlarida, ayniqsa, yorqin ifodalangan. Dramaturg Turkistonda Sovet hokimiyati yillarida sodir bo‘layotgan fojiali voqealarni Angliyaning mustamlakasi bo‘lgan Hindistonga ko‘chirib, ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashayotgan hind ixtilolchi (istiqlolchi)lari siymosida, ma’lum ma’noda, o‘z vatandoshlari obrazini yaratdi. “*J. Neruning e’tirof etishiga ko‘ra, Fitratning bu asarlari hind xalqining mustamlakachilikka qarshi olib borgan kurashiga kuch va madad bergan.*”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. (2000). Tanlangan asarlar. I jild. Toshkent: Ma’naviyat.
2. Abdurauf Fitrat. (2003). Tanlangan asarlar.III jild. Toshkent. Ma’naviyat.
3. Boltaboyev,H.(2007). Fitrat va jadidchilik *ilmiy-tanqidiy maqolalar*. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nazriyoti.
4. kh-davron.uz elektron kutubxonasi.
5. www.ziyo.uz elektron kutubxonasi.